

JAMIYATDA TO'SIQSIZ MUHIT YARATISHDA INKLYUZIV TA'LIMNING MAZMUNI VA AHAMIYATI

Mirzaabdullayeva Mashxura Akmaljon qizi

Qo'shtepa tumani 49-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mohiyati, uning ta'lim tizimidagi o'rni va jamiyat rivojiga ta'siri yoritiladi. Inklyuziv yondashuv orqali barcha bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, ularning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishi masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, teng imkoniyat, maxsus ehtiyojli bolalar, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, ta'lim muhiti, hamkorlik.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u barcha bolalarga, ularning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy xususiyatlaridan qat'i nazar, bir xil ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Bu yondashuvda har bir o'quvchi shaxs sifatida qadrlanadi, uning ehtiyojlari va qobiliyatlari hisobga olinadi hamda ta'lim jarayoni individual yondashuv asosida tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi hech bir bolani ta'lim jarayonidan chetda qoldirmaslik va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam berishdir.

Inklyuziv ta'lim jarayonida umumiy maktab muhiti barcha o'quvchilar uchun ochiq bo'ladi. Maxsus ehtiyojli bolalar tengdoshlar bilan birga o'qiydi, muloqot qiladi va ijtimoiy tajriba orttiradi. Bu holat ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, mustaqillikni rivojlantiradi va ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, boshqa o'quvchilar ham turli xil hayotiy vaziyatlarni tushunishga, hamdardlik va bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishga erishadi.

Ta'lim jarayonini inklyuziv asosda tashkil etishda o'qituvchi, psixolog va otionalarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning imkoniyatlari,

qiziqishlari va psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda dars jarayoni moslashtiriladi. Zarur hollarda qo'shimcha pedagogik va psixologik yordam ko'rsatiladi, mos o'quv materiallari va metodlar qo'llanadi. Bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshiradi va bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim jamiyatda tenglik, adolat va inson qadrini hurmat qilish g'oyalarini mustahkamlaydi. U nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki barcha o'quvchilar uchun foydali bo'lib, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamoada ishlashga o'rgatadi va o'zaro hurmat muhitini yaratadi. Bunday muhitda tarbiyalangan o'quvchilar kelajakda mas'uliyatli, bag'rikeng va faol shaxslar sifatida shakllanadi.

Umuman olganda, inklyuziv ta'lim har bir bolaning imkoniyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan muhim pedagogik va ijtimoiy jarayondir. U ta'lim tizimini insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishga, jamiyatda o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash muhitini shakllantirishga yordam beradi. Har bir bolaga berilgan e'tibor va yaratilgan imkoniyat uning kelajagini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limni O'zbekiston Respublikasida joriy qilishning afzallik tomoni shundaki, maxsus ta'lim muassasalari mavjud bo'lmagan joylarda ham imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimiga to'liq jalb qilinishiga imkoniyat yaratishdir. Inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'lim turlicha ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi.

Agarda inklyuziv ta'limni tatbiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalardan ma'lum bir samaraga erishishadi. Inklyuziv ta'lim madaniyati "Salamanka deklaratsiyasi"ga muvofiq har bir o'quvchining tafovut xususiyatlarini qo'llab-quvvatlovchi va ma'qullovchi islohot sifatida qarashadi. Har bir shaxsda mehr

olish, e'tiborda bo'lish, himoyalaniish, shaxsiylik faoliyatini ruxlantirish va shu kabi ehtiyojlar mavjud. Nogiron odamlar bundan mustasno emas, lekin bulardan tashqari ularning alohida shaxsiy ehtiyojlari mavjud. Ularning xatti harakatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari kabi jihatlariga asoslangan holda nogironliklari oz bo'lsada o'xshash bo'lgan taqdirda ham ular bir biridan farq qiladi. Masalan: ikkita nogironligi bir xil bo'lgan bolalarning biri ijobiy, ruxlantiruvchi muhitda yashashi mumkin, ikkinchisi esa salbiy, ko'ngilni qoldiruvchi muhitda yashashi mumkin¹. Ularning ikkalasi ham nogiron bo'lsada, bu ularga bir xil yordam ko'rsatilishi kerak degani emas. Ularning ehtiyojlari yakkama-yakka holda qondirilishi lozim.

Imkoniyati cheklangan bolalar deganimizda avvalo iqtisodiy yoki siyosiy faktorlarni emas balki jismoniy faktorni ya'ni nogironlikni ko'zda tutamiz. Nogironlik tushunchasini izohlash juda qiyin. Nogironlikning an'anaviy tushunchasi inson salomatligi bilan nimadur joyida emasligiga qaratilgan. Shunday qilib, jismoniy imkoniyati cheklanganlikka ko'zi ojizlik, karlik, odam qiynalib yoki butunlay harakatlanmaydigan turli holatlar, psixik kasalliklar, shuningdek, Daun sindromi va epilepsiya holati taalluqlidir. Bu tibbiy turidir. Nogironlikning ijtimoiy turi- bu insoniy xuquqlar muammosi! Ular ham teng qadriyatli insoniy mavjudot va teng xuquqqa egadirlar. Nogironlikning turlari bo'yicha qisqacha aytib o'tdim. Endi aqliy buzilishga ega bo'lgan shaxslarni parvarishlash va normallashtirish haqida aytmoqchiman. Maqsad shuki, har bir inson o'zi xoxlaganidek yashashi va ijod qilishiga yo'l ochishidir. Nogiron insonga ham hamma qatori hayotini davom ettirishi har soxada yutuqlarga erishishi uchun imkoniyat berish kerak deb o'ylayman. Buning uchun ularning hayotini normallashtirish eng to'g'ri yo'ldir.

Normallashtirish tamoyili quyidagicha ta'riflanadi: intellektual va boshqa funksional buzilishlarga ega bo'lgan shaxslar uchun kundalik mavjudlikni va hayot sharoitlarida shunday qulayliklar yaratiladiki, ular jamiyatda qabul qilingan shakllarga ancha yaqin yoki ular bilan deyarli mos kelgan bo'ladi.

Normallashtirish tamoyili barcha funksional buzilishlarga ega bo'lgan, kelib chiqish sababalaridan qat'iy nazar oilalaridan, jamiyatdan, madaniyatdan mahrum

bo'lish xavfi bo'lgan insonlarga tegishli bo'lib, bu tamoyil ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasi uchun xizmat qiladi.

Hayot siklini kechishining normal shakllari. Normallashtirish shuningdek, hayotda rivojlanishning barcha bosqichlarini bosib o'tish imkonini mavjudligini anglatadi: bolalik, o'quvchi, o'smirlik, katta yoshdagi inson.

Ota-onalar tangliklari. Funksional buzilishlarga ega farzandlari mavjud ota-onalar hayot sikli mobaynida 2 bosqichdan o'tadi: ular davomida normal jarayonlar sinadi yoki buziladi. Bu bir yoki bir nechta funksional buzilishli farzand dunyoga kelganida yoki biror oqibatda bolada bunday buzilish vujudga kelgani birinchi bosqich hisoblanadi. Ikkinchi bosqich bolani o'sib borishi bilan kechadi, ikki bosqich ham ota-onalar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega va shuning uchun ular bola va o'smirning rivojlanishi va ilk hayot yutuqdariga yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Aynan shuning uchun yosh va yoshi katta ota-onalarning osuda hayotlarini qo'llab quvvatlash ota-onalar tashkilotlari oldida turgan asosiy masalalardan biridir.

Erta bolalik. Funksional buzilishlarga ega bola boshqa barcha bolalar qatori mexribonlik va yaqinlikka, insonlar bilan muloqotda bo'lishga extiyoj sezadi.

Hech qaysi shifokor yoki boshqa inson vaziyatni qiyinlashtirmasligi ota-onalar tushuna olmaydigan yoki amalda qo'llab quvvatlolmaydigan uzoqni ko'zlovchi qarorlar qabul qilishga shoshilmasligi kerak. Biz shuni bilamizki, bolani intellektual va harakat funksiyalarini shuningdek, uning hissiy va shaxsiy rivojlanishida ota-onalar mehribonligi katta o'rin tutadi.

Aynan shuning uchun shifokorlar hamjamiyati va boshqa jamiyat tashkilotlari bunday oilalarga maslahatlar berib borish zamirida ushbu etik me'yorlarga va ushbu psixologiyaga katta e'tibor bilan yondoshishlari ayniqsa muhimdir.

Inklyuziv ta'limda yangi fikrlarning talqin etilishi milliy islohot va maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun strategiyalarda aniq aks etishi lozim hisoblanadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi

va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi kerak va ularning bilim olishlarini ta'minlashi kerak.

Maxsus extiyojlar ta'limi ta'lim tizimining bir qismidir. U jamiyat va mutaxassislar qimmatini va munosabatlari, moliyaviy resurslarni taqsimlash va o'qitish, o'qituvchilar va maktab tabiati borasidagi savollar bilan o'zaro bog'liqdir.

Barchaga ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. «Normal» va «maxsus» ta'lim o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi inklyuziv maktabda bunday tizimga extiyoj qolmaydi. Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ular pedagogik amaliyotni to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun, islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilari va uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim tizimi imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, ularga sifatli ta'lim olish uchun teng imkoniyat va huquqlar berishda muhim o'rin tutadi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish yanada bag'rikeng va teng huquqli jamiyatni yaratishga yordam beradi, bunda har bir shaxs, o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, o'zini anglash va jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatiga ega. Shu bois nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va integratsiyalashuvini ta'minlash, shuningdek, ularning jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishiga ko'maklashish uchun inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish va qo'llab-quvvatlashni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O`zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008.
3. G.N. Tansiqboyeva, M.Yu. Gasanov, A.M. Qodirova Ayol huquqi va erkinliklari. T.; Adolat, 2002.
4. Sh, M. Asyanov, X. Bakayeva, M.Yu. Gasanov, B.I. Ismoilov. O`zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta`minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. T.; Mega Basm bosmaxonasi, 2008.
5. Axmedov D.K. O`zbekistonda davlat ijtimoiy himoyasi: huquqiy asoslari va takomillashtirish muammolari. yur.fan.dok. ...dis. –T.: TDYuI, 2007.